

Akademik litsey dasturlari doirasida huquqiy fanlar bo'yicha bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash

T/r	Savollar
Davlat va huquq asoslari (Huquq faniga kirish)	
1.	Huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalarini tahlil qiling.
2.	Huquq tizimi tushunchasi va uning tarkibiy tuzilishini tushuntirib bering.
3.	Xalqaro munosabatlar qanday prinsiplar asosida quriladi?
4.	“O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonunga asosan fuqarolikni olishning qanday asoslari mavjud?
5.	Ma'muriy huquq manbalarining iyerarxik ketma-ketligi qanday?
6.	Emansipatsiya tushunchasiga ta'rif bering.
7.	Huquqshunoslik fanida “davlat” va “jamiyat” tushunchalariga izoh bering?
8.	Huquq kundalik hayotda iste'molchilarni qanday himoya qiladi?
9.	Davlat tuzilish shakli bo'lgan konfederatsiyaning qanday belgilarini bilasiz?
10.	Davlatning asosiy belgilarini aytib bering.
11.	Huquqiy munosabat subyektlari tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot bering.
12.	Davlat funksiyalari tushunchasi xususida to'xtaling.
13.	Huquqiy imtiyozlar: tushunchasi, xususiyati, funksiyalari va turlarini amaliy misollar orqali atroflicha tahlil qilgan holda javob bering.

14.	Kazual sharhlash deganda qanday sharhni tushunasiz?
15.	Huquq ustunligi hamda qonun ustunligi tushunchalarining farqli jihatlarini yoritib bering hamda bugungi kunda O'zbekiston huquqiy tizimida qay biri ustun mavqega ega ekanligi haqida fikr yuriting.
16.	Ommaviy va xususiy huquq amaliy misollarda qanday farqlanadi?
17.	Jinoyat tushunchasi va uning tarkibini tushuntirib bering.
18.	Huquq, axloq va odat odamlar xulq-atvorini tartibga solishda qanday nisbatda bo'ladi?
19.	Saylovlar va siyosiy plyuralizm fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini qanday ta'minlaydi?
20.	Jinoiy javobgarlik asosida qanday prinsiplar yotadi va ular davlatning jazolash vakolatini nima uchun cheklaydi?
21.	To'g'ri qasd, egri qasd, o'z-o'ziga ishonish va beparvolik qanday farqlanadi?
22.	Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish bilan mansab vakolatini suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taroj qilish jinoyati o'rtasida qanday farqlar bor?
23.	Nima uchun shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish zamonaviy huquqiy tizimning muhim qismiga aylandi?
24.	Monarxiyaning qanday asosiy belgilari mavjud?
25.	Obyektiv huquq va subyektiv huquq o'zaro qanday farq qiladi?
26.	Aybsizlik prezumpsiyasi adolatli sud uchun nima sababdan katta ahamiyatga ega?
27.	O'zbekiston milliy huquqiy tizimida huquqning qaysi asosiy manbalari tan olingan?
28.	Huquqiy odat tushunchasiga qanday ta'rif beriladi?
29.	Yuridik javobgarlikning qanday turlarini bilasiz?
30.	Nima uchun huquqiy davlatda davlat hokimiyati vakolatlari uchga bo'linadi?
31.	Mehnat huquqi subyektlari sifatida kimlar ishtirok eta oladi? Ularga qo'yiladigan talablarni tahlil qiling?

32.	Huquq ustuvorligi deganda nimani tushunasiz?
33.	Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning subyekti, obykti va mazmunini atroflicha muhokama qiling.
34.	Nikoh tuzish uchun qanday shartlar zarur va qaysi holatlar uni ro'yxatdan o'tkazishga to'sqinlik qiladi?
35.	Nikohning tugatilish asoslari qanday? Nikohdan ajratish tartibini tushuntirib bering.
36.	Budjet nima va nima uchun uning sarflanishi ustidan nazorat huquqiy masala hisoblanadi?
37.	Ekologiya huquqining maqsad-vazifalari va asosiy tamoyillarini bayon qiling.
38.	Fuqarolik huquqida yuridik shaxs jismoniy shaxsdan nimasi bilan farq qiladi?
39.	Normativ-huquqiy hujjatlarning turlarini tahlil qiling.
40.	Xalqaro ommaviy huquqning xalqaro xususiy huquqdan farqli jihatlarini amaliy misollar yordamida tushuntirib bering.
41.	Oila huquqiga ko'ra ota-ona va voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
42.	Mehnat shartnomasi nima va ishga faktik ruxsat berish nima uchun huquqiy ahamiyatga ega?
43.	Jinoyatlar qanday tasniflanadi va bu jazo tayinlashga nima uchun ta'sir qiladi?
44.	Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi?
45.	Huquqiy davlatda parlament qanday vakolatlarga ega va nima uchun u vakillik organi deyiladi?
46.	Huquqning asosiy manbalari nimalar?
47.	Roman-german huquqiy oilasi bilan Ingliz-Amerika huquqiy oilasining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
48.	Sud mustaqilligi nimani anglatadi va fuqarolar uchun qanday odil sudlov kafolatlarini yaratadi?
49.	Davlat ham fuqarolik munosabatlarida boshqa subyektlar kabi teng huquq asosida huquqiy munosabatlarga kirishadi. Davlatni fuqarolik huquqi subyekti sifatida yoritib bering.

50.	O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini sanab o‘ting.
Davlat va huquq tarixi	
1.	Qadimgi Sharq mamlakatlarida davlat va huquqning vujudga kelishi hamda rivojlanishi xususiyatlarini tavsiflang.
2.	Davlat va huquq tarixi fanining predmeti, vazifalari va amaliy ahamiyatini tushuntiring.
3.	Davlat va huquq tarixining yuridik fanlar tizimida tutgan o‘rni va ahamiyatini aniqlashtiring.
4.	Xammurapi qonunlariga ko‘ra qarz shartnomasini tushuntirib bering.
5.	“Avesto”da nikoh, oila va ijtimoiy tartib masalalari qanday ifodalangan?
6.	Amir Temur davlati markaziy boshqaruv tizimining asosiy organlarini bayon qiling.
7.	Qadimgi Sharq mamlakatlarining huquq manbalarida mulkka qarshi jinoyatlar uchun qanday jazolar belgilangan edi?
8.	Antik dunyoda huquqning rivojlanishini tahlil qiling.
9.	Rim huquqida imperator hujjatlari (konstitutsiyalari) haqida tushunchalar bering.
10.	Qadimgi Afinada Tesey, Solon va Klisfen islohotlarining davlat shakllanishidagi rolini tushuntiring.
11.	“Napoleon fuqarolik kodeksi”ning mazmunini tushuntirib bering.
12.	Xitoy Xalq Respublikasi va uning davlat tuzumi haqida tushuntirib bering.
13.	Qadimgi Rimda plebeylar va patrisiyalar o‘rtasida qanday kurash bo‘lgan va uning natijalari nima bilan tugagan?
14.	“Xabeas korpus akti”ning tarixiy-huquqiy ahamiyatini tushuntiring.
15.	1215-yilgi Buyuk ozodlik xartiyasining davlat va huquq tarixidagi ahamiyatini ochib bering.
16.	AQSh konstitutsiyasiga kirgan dastlabki o‘zgartirishlarning ahamiyatini tushuntirib bering.

17.	Rimda qadimgi davr huquqi bo'yicha nikoh va oila munosabatlari qanday tartibga solingan edi?
18.	Qadimgi Rim huquqi bo'yicha sud ishlarini yuritishdagi legisaksion jarayonning mohiyatini tushuntirib bering.
19.	Amaldagi Yaponiya Konstitutsiyasiga asosan ijroiya hokimiyati tizimini tushuntirib bering.
20.	1789-yilgi Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining asosiy mazmuni va tarixiy ahamiyatini bayon qiling.
21.	Kanadaning "dominion statusini" tushuntirib bering.
22.	XII jadval qonunlarida deliktlar va javobgarlik masalalari qanday tartibga solingan?
23.	Angliyada vujudga kelgan "adolat huquqi" va uning asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.
24.	1689-yilgi "Huquqlar to'g'risidagi Bill"ning mazmuni va konstitutsiyaviy ahamiyatini tushuntiring.
25.	Qadimgi Misr huquqining asosiy belgilari haqida aytib bering.
26.	"Avesto"da jinoyat masalasi haqida nimalar bayon qilingan?
27.	Delikt majburiyatlar nima va uning qanday turlari bor?
28.	1701-yilgi "Taxt vorisligi haqidagi akt"ning mazmuni va ahamiyatini bayon qiling.
29.	Fransiyaning 1791-yilgi birinchi Konstitutsiyasi haqida gapirib bering.
30.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasining mazmun-mohiyatini yoritib bering.
31.	O'zbekiston Respublikasining XX asrdagi qonunchiligida fuqaroning aybsizlik prezumpsiyasi o'zining qanday ifodasini topgan edi?
32.	Yustinian kodekslari haqida nimalarni bilasiz?
33.	Rim huquqi tarixining asosiy davrlarini tavsiflab bering.
34.	Geliyeya haqida nimalarni bilasiz?

35.	Davlatning paydo bo'lishi qanday tushuntiriladi?
36.	Qadimgi Misr davlati qanday tashkil topgan?
37.	O'rta asr Yevropasida feodal huquq qanday edi?
38.	Qadimgi Sharq mamlakatlarida huquqning asosiy manbalarini sanab bering.
39.	Qadimgi Hindiston huquqining asosiy belgilari haqida fikr yuriting.
40.	Islom huquqining asosiy manbalari va ularning tarixiy ahamiyatini tushuntiring.
41.	Usmoniylar imperiyasi huquqiy tizimining o'ziga xos jihatlarini bayon eting.
42.	Qadimgi Hindistondagi Manu qonunlarining mazmun-mohiyati va huquqiy ahamiyatini ochib bering.
43.	Buyuk Britaniyaning huquqiy tizimi qanday rivojlangan?
44.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi tarixi haqida aytib bering.
45.	Birlashgan Millatlar Tashkilotining tashkil etilishi qachon va qanday amalga oshirilgan?
46.	"Magna Carta" nima va uning ahamiyati qanday?
47.	Davlat va huquq tarixi fanini ilmiy bilishning mustaqil sohasi sifatida o'rganilishini tushuntirib bering.
48.	Davlat va huquq tarixini davrlarga va tarkibiy qismlarga bo'lib o'rganish ahamiyatini tushuntirib bering.
49.	"Avesto" to'g'risida nima bilasiz, uning huquqiy ahamiyati nimada bo'lgan?
50.	Qadimgi Sharq huquqida davlatga qarshi jinoyatlar uchun qanday jazolar belgilangan edi?
Konstitutsiyaviy huquq faniga kirish (O'zbekiston Konstitutsiyasi)	
1.	Davlat suvereniteti deganda nimani tushunasiz va u Konstitutsiyada qanday mustahkamlangan?

2.	Konstitutsiyada belgilangan “Xalq hokimiyatchiligi”ga oid normaning mazmunini qanday ifodalash mumkin?
3.	Konstitutsiya va qonunning ustunligi prinsipining konstitutsiyaviy asoslarini tushuntiring.
4.	Konstitutsiyaviy burch tushunchasi nimani anglatadi va uning fuqarolar tomonidan bajarilishi qanday huquqiy ahamiyat kasb etadi?
5.	Odatda konstitutsiyalarda qanday turdagi burchlar belgilanadi?
6.	O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik deganda nima tushuniladi?
7.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday asosiy ekologik huquqlar mustahkamlangan?
8.	O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining maqsadlari haqida aytib bering.
9.	Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga yo‘l qo‘yiladimi?
10.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanday shaxsiy huquq va erkinliklar mustahkamlab qo‘yilgan?
11.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Xabeas korpus” aktiga oid qanday norma belgilangan?
12.	O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda qanday ko‘rinishda ishtirok etishlari mumkin?
13.	Siyosiy partiyaning faoliyatini to‘xtatib turish qanday tartibda amalga oshiriladi?
14.	Davlat tomonidan mulk huquqi qanday muhofaza qilinadi?
15.	Konstitutsiyaga muvofiq shaxs buzilgan huquq va erkinliklarini qanday tiklashi mumkin?
16.	Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi kafolatlari nimalardan iborat?
17.	Inson huquqlarini ta’minlash bo‘yicha qanday milliy institutlarni bilasiz?
18.	Konstitutsiyada belgilangan bolalar mehnatiga oid normalarning mazmuni nimadan iborat?

19.	“Miranda qoidasi” tushunchasi va mazmun-mohiyati haqida gapirib bering. O‘zbekiston Konstitutsiyasida unga oid qanday normalar mavjud?
20.	Mahalliy davlat hokimiyati organlari deganda nima tushuniladi?
21.	Konstitutsiyada mustahkamlangan shaxsiy va oilaviy sirga ega bo‘lish huquqi fuqarolar uchun qanday ahamiyatga ega?
22.	Konstitutsiyada shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qanday kafolatlar mavjud?
23.	O‘zbekiston Respublikasida saylov o‘tkazishning qanday asosiy prinsiplari mavjud?
24.	O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi haqida ma’lumot bering.
25.	Jurnalistning axborot olish huquqining konstitutsiyaviy kafolatlari haqida ma’lumot bering?
26.	Axborot olish, izlash va tarqatish huquqi qay darajada kafolatlangan va uning chegaralari bormi?
27.	Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va demokratik davlat qurilishidagi o‘rni nimalardan iborat?
28.	Fuqarolik jamiyati institutlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o‘rni va ahamiyati qanday?
29.	Advokatura institutining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yoriting?
30.	Nega malakali yuridik yordam olish huquqi advokatura bilan uzviy bog‘liq?
31.	Advokaturaning mustaqilligi nima uchun konstitutsiya darajasida mustahkamlangan?
32.	O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga umumiy tartibda qabul qilish asoslarini yoriting.
33.	Prokuraturaning konstitutsiyaviy maqomi nimadan iborat?
34.	O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini yo‘qotish asoslari qay hollarda yuzaga keladi?
35.	Parlament nazorati tushunchasi va uni amalga oshiruvchi subyektlarni tushuntiring.
36.	Konstitutsionalizm tushunchasi va uning mohiyatini izohlang.

37.	Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan o'qituvchi kasbiga oid normalar va ularning mazmunini tushuntiring.
38.	Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqiga ega subyektlar kimlar?
39.	Konstitutsiyada yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish borasida belgilangan normalar va ularning mazmuni nimadan iborat?
40.	Oliy Majlis tomonidan parlament nazoratini amalga oshirishning qanday shakllari mavjud?
41.	Qaysi xatti-harakatlar O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'iga nisbatan hurmatsiz munosabatda bo'lish deb baholanadi?
42.	O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazish tashabbusi va referendum tayinlash huquqini tushuntiring.
43.	O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati subyektlari va obyektini yoriting.
44.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibini yoriting.
45.	O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga nisbatan ishonchsizlik votumi berish qanday tartibda amalga oshiriladi?
46.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qanday vakolatlari mavjud?
47.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bolalar va yoshlar huquqlarini ta'minlash bo'yicha qanday normalar belgilangan?
48.	Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan hamkorligini yoritib bering.
49.	Vazirlar Mahkamasini shakllantirish tartibi qanday?
50.	Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining maqomini yoriting.
Oila huquqi	
1.	Oila to'g'risidagi qonunchilik bilan bevosita tartibga solinmagan oilaviy munosabatlarga nisbatan huquqni qo'llash amaliyoti qanday mexanizmlarga tayanadi?

2.	Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari mutlaq xususiyatga egami yoki ularni cheklashning qonuniy sabablari mavjudmi?
3.	Oila munosabatlaridan kelib chiqadigan talablarga nisbatan nima sababdan da'vo muddati joriy etilmaydi?
4.	Qonunchilikda aniq normalar mavjud bo'lmagan taqdirda mahalliy urf-odat va an'analardan foydalanish qanday huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi?
5.	Xalqaro huquq normalari va O'zbekiston oila qonunchiligi o'rtasida farq yuzaga kelganda qanday huquqiy yechim qo'llaniladi?
6.	Nikohning faqat davlat organlarida qayd etilishi qanday huquqiy mantiqqa asoslanadi va diniy nikohning yuridik holati qanday ifodalanadi?
7.	Nikoh tuzish muddati necha kunni tashkil etadi va bu muddatni qisqartirish yoxud uzaytirishning sabablari nimalarda namoyon bo'ladi?
8.	Nikoh yoshining huquqiy tabiati va ushbu yosh senzini qisqartirish imkoniyatlari qanday organlar tomonidan nazorat qilinadi?
9.	Qonunchilikda ko'zda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar qaysilar va ularning ijtimoiy oqibatlari qanday tushuntiriladi?
10.	Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning huquqiy maqsadi hamda ushbu majburiyatdan istisno qilingan holatlar qanday tasniflanadi?
11.	Er va xotinning oiladagi teng huquqliligi tamoyili ularning qaysi shaxsiy qarorlarida yaqqol o'z ifodasini topadi?
12.	Nikoh qayd etilishi jarayonida familiya tanlash huquqi qanday mexanizm asosida amalga oshadi va bu huquqning individual oqibatlari qanday?
13.	Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki qanday vujudga keladi va uning tarkibiga qanday daromad turlari kiritiladi?
14.	Taraflardan biri doimiy ravishda uy-ro'zg'or ishlari bilan band bo'lib, rasmiy daromadga ega bo'lmagan taqdirda uning mulkiy huquqlari qanday himoyalanaadi?

15.	Nikohgacha bo'lgan xususiy mulk obyekti qaysi sabablarga ko'ra sud tomonidan umumiy mulk tarkibiga o'tkazilishi mumkin?
16.	Nikoh shartnomasini tuzish maqsadi nimadan iborat va bu hujjat taraflarga qanday huquqiy yengilliklar beradi?
17.	Nikoh shartnomasida qanday shartlarning belgilanishi qonun bilan qat'iyan taqiqlangan va bu cheklovlarning ijtimoiy mohiyati nimalarda ko'rinadi?
18.	Nikohdan ajratish tartibi qaysi organlar orqali amalga oshiriladi hamda taraflar qachon to'g'ridan-to'g'ri sudga murojaat qilishga majbur bo'ladilar?
19.	Qaysi maxsus holatlarda er-xotindan birining arizasi asosida voyaga yetmagan bolalar borligidan qat'i nazar FHDYo organlarida nikoh bekor qilinishi ruxsat etiladi?
20.	Sud o'z hukmini chiqarayotganda voyaga yetmagan bolalar va mulkiy masalalar yuzasidan qanday aniq ko'rsatmalarni tasdiqlashi shart qilib qo'yilgan?
21.	Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi qanday ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan?
22.	Ota-onasining nikohdan ajralishi yoki ularning alohida yashashi bolaning qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ta'sir o'tkazadimi?
23.	Bolaning o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish mexanizmi qanday bosqichlardan iborat va bola qaysi yoshdan sudga mustaqil murojaat qila oladi?
24.	Oilada qarorlar qabul qilinishida bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi uning yoshiga bog'liqmi hamda uning yuridik kuchi qanday?
25.	Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish qanday tartibda amalga oshadi va ota-ona o'rtasida ixtilof kelib chiqqanda nima qilinadi?
26.	Ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishdagi ustun huquqi nimalardan iborat va bu majburiyat nima bilan cheklanadi?
27.	Qonunchilik ota-onalik huquqidan mahrum qilishning qanday obyektiv va subyektiv asoslarini belgilab bergan?
28.	Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxs qanday huquqiy va moddiy oqibatlarga yuz tutadi?

29.	Ota-onalik huquqini cheklash qachon qo‘llaniladi va uning huquqdan mahrum qilishdan farqli mantiqiy jihati nimalarda ko‘rinadi?
30.	Ota-onalik huquqini qayta tiklashning yuridik imkoniyatlari qanday holatlarda ko‘rib chiqiladi?
31.	Voyaga yetmagan bolalarga ota-ona tomonidan to‘lanadigan aliment miqdori nima sababdan aynan daromadga nisbatan qat’iy ulushlarda belgilangan?
32.	Qaysi huquqiy vaziyatlar ota yoki onaning daromadi yuqori bo‘lsa-da, sud tomonidan aliment miqdorining kamaytirilishiga sabab bo‘lishi mumkin?
33.	Aliment to‘lash to‘g‘risidagi o‘zaro kelishuv tuzilganda, taraflar aliment miqdorini qonunda ko‘rsatilganidan kamroq miqdorda belgilashga haqlimi?
34.	Aliment qarzini undirish tartib-qoidasi va uning hisoblanishi sobiq daromad yo‘q bo‘lgan sharoitda qanday amalga oshadi?
35.	Aliment majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmaslik oqibatida qo‘llaniladigan neustoyka va javobgarlik turlari nimalarda o‘z ifodasini topadi?
36.	Bobo va buvining o‘z nevaralariga ta‘minot berish majburiyati qanday yuridik shartlar ostida yuzaga keladi?
37.	Aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi aliment munosabatlarida qanday ketma-ketlik va shartlar amal qiladi?
38.	O‘gay ota va o‘gay onaning o‘gay farzandlariga nisbatan aliment majburiyatining huquqiy va axloqiy sabablari nimalardan iborat?
39.	Tarbiyachilar va doimiy tarbiyaga olingan shaxslar o‘rtasidagi mulkiy majburiyatlar tizimi nimalarni qamrab oladi?
40.	Boshqa qarindoshlar va uchinchi shaxslardan undiriladigan alimentlar miqdori qanday hisob-kitob asosida ajratiladi?
41.	Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash tizimi qanday ishlaydi va bunda turli idoralarning javobgarligi qanday namoyon bo‘ladi?
42.	Farzandlikka olishni sud tartibida ko‘rib chiqishning asosi nima va u tug‘ilishni qayd etish daftariga qanday o‘zgarishlar kiritadi?

43.	Farzandlikka olish sirini ta'minlash qanday kafolatlanadi va uni oshkor etgan shaxslar qanday javobgarlikka tortiladilar?
44.	Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) institutining huquqiy-ijtimoiy maqsadi qanday tushuntiriladi va kelishuv nimalarni o'z ichiga oladi?
45.	Tutingan ota-ona bo'lish huquqiga ega bo'lmagan shaxslar toifasi qanday huquqiy mezonlarga ko'ra ajratib ko'rsatilgan?
46.	O'zbekiston hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarning mamlakat hududida haqiqiy deb e'tirof etilishi qanday huquqiy mexanizmga ega?
47.	O'zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan oila qurishi oqibatida ajralish jarayoni qaysi davlat yurisdiksiyasiga bo'ysunadi?
48.	Chet el oila huquqi normalarini amaliyotga tatbiq etishda sud idoralari va FHDYo organlari qanday yo'l tutadilar?
49.	Tug'ilish, nikoh va o'lim kabi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish nega qat'iy ravishda bitta nusxada va gerbli guvohnomalar asosida amalga oshiriladi?
50.	Jins o'zgartirilishi natijasida fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish kiritishning eng muhim yuridik asosi nimadan iborat?